FASLLARGA MOS KELUVCHI KIYIM MODALARINI KO'RSATUVCHI MOBIL DASTUR ISHLAB CHIQISH

Abdullayev Anvar Shuxratovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Urganch filiali Axborot texnologiyalari kafedrasi assistant o'qituvchi
E-mail: anvar.abdullayev.1989@gmail.com
Normetova Asalxon Ozod qizi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Urganch filiali Kompyuter injiniring fakulteti 4-bosqich talabasi
E-mail: normetovaasal456@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi raqamli transformatsiya davrida mobil ilovalar kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylangan bo'lib, ular turli sohalarda, jumladan, moda va kiyinish madaniyatida ham keng qo'llanilmoqda. Iqlim o'zgarishlari, shaxsiy uslubga e'tibor va zamonaviy texnologiyalar rivoji fasllarga mos kiyinish madaniyatini raqamli shakllarda targ'ib etish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Shu nuqtai nazardan, fasllarga mos keluvchi kiyim modalarini namoyish etuvchi mobil ilova yaratish g'oyasi nafaqat zamon talabi, balki foydalanuvchilarning amaliy ehtiyojlariga ham javob beradi. Tadqiqotlarga ko'ra, raqamli moda platformalari foydalanuvchilarning kiyinish odatlarini o'zgartirishda va barqaror kiyim tanlovini rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: mobil ilovalar, dasturlash tillari, Android, , UI va UX dizaynlari, backend, frontend, ilovani testlash, mobil dasturlar xavfsizligi, optimallashtirish, Android Studio mobil dasturlar ishlab chiqish.

Аннотация: В современную эпоху цифровой трансформации мобильные приложения стали неотъемлемой частью нашей повседневной жизни и широко используются в различных областях, включая моду и культуру одежды. Изменение климата, внимание к личному стилю и развитие современных технологий создают необходимость продвижения культуры сезонной одежды в цифровых формах. В этом контексте идея создания мобильного приложения, отображающего тенденции одежды, соответствующие сезонам, является не только современным трендом, но и отвечает практическим потребностям пользователей. Согласно исследованиям, цифровые модные платформы играют важную роль в изменении привычек пользователей в одежде и поощряют выбор устойчивой одежды.

Ключевые слова: мобильные приложения, языки программирования, Android, дизайн пользовательского интерфейса и пользовательского опыта,

ISSN 3030-3907

приложений, оптимизация, разработка мобильных приложений в Android Studio.

Abstract: In today's era of digital transformation, mobile applications have become an integral part of our daily lives, and they are widely used in various fields, including fashion and clothing culture. Climate change, attention to personal style, and the development of modern technologies create the need to promote the culture of seasonal clothing in digital forms. In this regard, the idea of creating a mobile application that displays seasonal clothing trends is not only a modern trend, but also meets the practical needs of users. According to research, digital fashion platforms play an important role in changing users' clothing habits and encouraging sustainable clothing choices

Keywords: mobile apps, programming languages, Android, UI and UX designs, backend, frontend, app testing, mobile app security, optimization, Android Studio mobile app development.

Kirish

Mobil ilova (inglizcha: Mobile app) — ma’lum bir platforma, ya’ni iOS, Android, Windows, iPhone va shu kabilar uchun ishlab chiqilgan smartfonlar, planshetlar va boshqa mobil qurilmalarda ishlashga mo‘ljallangan dastur hisoblanadi. Ko‘pgina mobil ilovalar qurilmaning o‘zida oldindan o‘rnatiladi yoki ularni App Store, Google Play va boshqalar kabi onlayn dastur do‘konlaridan bepul yoki pullik yuklab olish mumkin. Moda sanoatining raqamli platformalar bilan uyg‘unlashuvi yoshlar orasida individual uslubni shakllantirish, atrof-muhitga mos kiyinish madaniyatini rivojlantirish va barqaror modani ilgari surishga xizmat qiladi. Shu bois, mobil ilovalar orqali fasllarga mos kiyimlar modasini foydalanuvchilarga taqdim etish nafaqat innovatsion yondashuv, balki axborot jamiyatiga xos ijtimoiy va madaniy ehtiyojlarga javob beruvchi loyiha hisoblanadi. Bugungi zamonaviy dunyoda simsiz texnologiyalarning jadal sur’atlarda rivojlanib borishi va ta’limda mobil ilovalarning qo‘llanishiga turtki bo‘lmoqda. Ko‘pgina oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilari uchun so‘nggi yillarda ta’limda mobil texnologiyalarni tadqiq qilish va qo‘llashning eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylantirib borishmoqda. Mobil ilovalar bozorining o‘sishi hayotning barcha jabhalarida, shu jumladan ta’lim sohasida ham mobil tizimlardan foydalanish muhimligi, qulayligi va dolzarbligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Pinterest ilovasi

2010-yilda ishga tushirilgan ushbu platforma foydalanuvchilarga o‘z qiziqishlari asosida rasm, dizayn, retsept, moda va boshqa ko‘plab yo‘nalishlardagi tasvirlarni "pin" qilish, ya’ni o‘z elektron "doskalariga" joylashtirish imkonini

ISSN 3030-3907

beradi. Pinterestning muvaffaqiyatli ishlashida axborot arxitekturasi va minimalistik dizayn asosiy rol o‘ynaydi. Interfeysda asosiy e’tibor — tasvirlar va ularning mavzuli guruhlanishiga qaratilgan. Har bir foydalanuvchi o‘zining "doskalari"ni yaratadi va ularga kontentni tartiblaydi, bu esa ma’lumotni vizual tarzda strukturalash imkonini beradi. Pinterest zamonaviy ijtimoiy tarmoqlarning o‘ziga xos vakilidir. U foydalanuvchiga ilhom bag‘ishlaydi, axborotni strukturalaydi va algoritmik tavsiyalar orqali yangi kashfiyotlar sari yo‘naltiradi. Ilovaning axborot arxitekturasi, UX dizayni, algoritmlari va madaniy pozitsiyasi uni nafaqat texnologik, balki madaniy fenomen sifatida ham o‘rganishga arziydigan platformaga aylantirgan. Pinterest shunchaki tasvirlar jamlanmasi emas, balki zamonaviy vizual tafakkur shakllanishining markaziy o‘yinchilaridan biridir.

Instagram ilovasi

2010-yilda ishga tushirilgan va 2012-yilda Meta (avvalgi Facebook Inc.) tomonidan sotib olingan Instagram bugungi kunda nafaqat ijtimoiy tarmoq, balki raqamli hayotning integral qismi sifatida faoliyat yuritmoqda. Instagramning asosiy interfeysi — vizual lentaga asoslangan, minimalistik va sezgir dizayni bilan ajralib turadi. U uzluksiz skrollanish orqali doimiy kontent iste’molini ta’minlaydi. Platformaning asosiy birliklari — suratlar, videolar, hikoyalar ("Stories"), reels va jonli efirlar — har biri alohida axborot oqimini tashkil qiladi.

Instagramning asosiy interfeysi — vizual lentaga asoslangan, minimalistik va sezgir dizayni bilan ajralib turadi. U uzluksiz skrollanish orqali doimiy kontent iste’molini ta’minlaydi. Platformaning asosiy birliklari — suratlar, videolar, hikoyalar ("Stories"), reels va jonli efirlar — har biri alohida axborot oqimini tashkil qiladi. Instagram ayniqsa moda, go‘zallik, dizayn va san’at kabi kreativ sohalarda asosiy kommunikatsiya kanallaridan biriga aylangan. Moda brendlari va dizaynerlar Instagramni trendlar yaratish, kolleksiya namoyishi, va mijozlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qilish vositasi sifatida qo‘llaydilar.

LookBook

Raqamli media rivoji bilan moda endi nafaqat yirik podiumlarda, balki mobil qurilmalarda, ijtimoiy tarmoqlarda va vizual platformalarda namoyon bo‘lmoqda. Shu kontekstda Lookbook ilovasi — foydalanuvchilarning o‘z kiyinish uslubi (outfit) ni namoyish etishi, baham ko‘rishi va boshqa foydalanuvchilardan vizual ilhom olishi mumkin bo‘lgan moda-orientatsiyalashgan ijtimoiy tarmoqdir. Bu platforma street style madaniyatining global ifodalanishi, vizual identitet qurilishi va trendlarga ijtimoiy ta'sir nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Lookbook foydalanuvchilari o‘z kiyim-kechak tanlovlari orqali shaxsiy uslubi va moda qarashlarini ifodalaydi. Har bir post aslida o‘zini moda orqali taqdim etish harakatidir. Lookbook interfeysi sodda, vizual va foydalanuvchiga yo‘naltirilgan.

ISSN 3030-3907

Foydalanuvchilar o‘z outfitlarini suratlar ko‘rinishida yuklaydi, ular joylashuv, brendlar, kiyim turlari va mavsumiy belgilar asosida teglar bilan tashkil etiladi. Lookbook — bu zamonaviy moda madaniyatining jamoaviy, vizual va demokratik ifodasi. Platforma individual uslubni ko‘rsatish, ijtimoiy baholash, va global ilhom olish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Instagram — ko‘p funksiyali va interaktiv bo‘lib, har xil kontent turlarini birlashtiradi. Pinterest — tartiblangan ilhom doskalari orqali individual vizual xotirani shakllantiradi. Lookbook esa — outfit namoyishiga ixtisoslashgan, oddiy, ammo estetik interfeysga ega. Instagram foydalanuvchisi o‘zini keng auditoriyaga idealizatsiyalangan estetik obraz orqali namoyish qiladi. Pinterest foydalanuvchisi — o‘ziga ilhom qidiradi. Lookbook foydalanuvchisi esa kiyinish orqali o‘zini ifodalaydi, va ko‘proq jamoaviy moda tajribasiga urg‘u beradi.

Ushbu uch platforma moda kommunikatsiyasining uch turli strategiyasini ifodalaydi:

- Instagram — bu ijtimoiy kapital va mashhurlik asosidagi estetika, unda foydalanuvchi o‘zini trendlarga muvofiq tarzda idealizatsiyalaydi.
- Pinterest — vizual tafakkur va ilhom yig‘ish vositasi bo‘lib, bu platforma ichki moda identitetining rivojlanishiga xizmat qiladi.
- Lookbook — esa real outfitlar va autentik moda ifodasi orqali foydalanuvchini jamoaviy va amaliy moda madaniyatiga qo‘shadi.


Shu bilan, har bir platforma moda madaniyatida o‘ziga xos funksiya, estetik ifoda va algoritmik madaniyatga ega bo‘lib, ularni birgalikda o‘rganish raqamli modaning zamonaviy dinamikasini chuqur tushunishga yordam beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR




1-rasm. Atlas mobil ilovasi asosiy qismi


ISSN 3030-3907



2-rasm. Ilovaning kategoriya bo'limlari



3-rasm. Ayollar uchun yozgi kiyimlar kolleksiyasi



4-rasm. Ilovaning registratsiya bo'limi

ISSN 3030-3907

XULOSA VA TAKLIFLAR

Pinterest, Instagram va Lookbook ilovalari tahlili zamonaviy moda kommunikatsiyasining ko‘p qirrali va interaktiv tusga ega ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu platformalar nafaqat brendlar uchun marketing vositasi, balki foydalanuvchilar uchun shaxsiy estetikani rivojlantirish, ilhom olish va moda trendlarini shakllantirish imkonini yaratmoqda.

Pinterest algoritmik asoslangan vizual qidiruv orqali mavzularni sistemalashtirishda yordam beradi. Instagram esa real vaqtli kontent va vizual hikoya vositalari bilan kuchli ta’sirchanlik hosil qilib, trendlarning ommaviylashishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Lookbook esa ko‘proq street style hamda yosh dizaynerlar va blogerlar auditoriyasini o‘ziga jalb etib, moda ifodasining demokratik va eksperimental shakllarini yoritadi.

Ushbu ilovalarning moda sohasi bilan uyg‘un ishlashi zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida moda madaniyatining shakllanishida muhim o‘rin tutayotganini tasdiqlaydi. Shu sababli, bu platformalarning har tomonlama o‘rganilishi moda va kommunikatsiya sohalari kesishmasida yangi tadqiqot yo‘nalishlariga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Zhai, A., Kislyuk, D., Jing, Y., Feng, M., Tzeng, E., Donahue, J., Du, Y. L., & Darrell, T. (2017). *Visual Discovery at Pinterest*. arXiv preprint arXiv:1702.04680. https://arxiv.org/abs/1702.04680

2. Hochman, N., & Manovich, L. (2013). Zooming into an Instagram city: Reading the local through social media. *First Monday*, 18(7). https://firstmonday.org/ojs/index.php/fm/article/view/4711

3. Manikonda, L., Hu, Y., & Kambhampati, S. (2014). Analyzing user activities, demographics, social network structure and user-generated content on Instagram. *arXiv preprint arXiv:1410.8099*. https://arxiv.org/abs/1410.8099

4. Gilbert, E., Bakhshi, S., Chang, S., & Terveen, L. (2013). "I Need to Try This!": A Statistical Overview of Pinterest. *CHI '13: Proceedings of the SIGCHI Conference on Human Factors in Computing Systems*, 2427–2436. https://doi.org/10.1145/2470654.2481341

5. Lookbook.nu. (2024). *About Us & Platform Overview*. https://lookbook.nu/about

6.https://docs.flutter.dev/resources/faq

https://en.wikipedia.org/wiki/Figma_(software)

https://en.wikipedia.org/wiki/MySQL

ISSN 3030-3907

7.Dadaboyev, Q. Q. (2022). Bug'-gaz qurilmasi gradirniyalaridagi aylanma suv isrofini kamaytirish “Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)”, Special issue, 15-21

8.Jenkins, D. T.. The Cambridge history of western textiles. Cambridge, U.K.; New York: Cambridge University Press, 2003. ISBN 978-0-521-34107-3. OCLC 48475172